

IZBOSKAN TUMANI AXBOROT KUTUBXONA MARKAZI

1-mart - O'zbekiston xalq shoiriasi Zulfiya Isroilova tavallud topgan kun!

“Zulfiya – sevgi timsoli” mavzusida



VIRTUAL KO'RGAZMA

ZULFIYA ISROILOVA HAYOTI VA IJODI

- ▶ O‘zbek xalqining sevimli shoirasi, taniqli jamoat arbobi, xalqaro tinchlik uchun kurash jarchisi, qolaversa mehr va sadoqat timsoli Zulfiya Isroilova 1915-yil 1-martda Toshkentda, Degrez mahallasida dunyoga keladi. U 1922-1931-yillarda maktabda, 1931-1934-yillarda Qizlar bilim yurtida va 1935-1938-yillarda “Til va adabiyot instituti” aspiranturasida o‘qigan. 1938-1948-yillarda nashriyotlarda muharrir, bo‘lim boshlig‘i, 1950-1953-yillar “Saodat” jurnalida bo‘lim boshlig‘i, 1953-1980-yillarda esa shu jurnalning bosh muharriri lavozimida ishlagan. 17 yoshida yozgan ilk she‘riy to‘plami “Hayot varaqlari” bilan adabiyot olamiga kirib kelgan Zulfiya o‘z davri voqealariga munosabat bildirishda hozirjavobligi bilan o‘zbek she‘riyatining yorqin yulduziga aylandi. 1939-yil “She‘rlar” to‘plami e‘lon qilindi. 1945-yili yozgan “Bahor keldi seni so‘roqlab” she‘ri bilan baxt va bahor haqida jo‘shib kuylagan yori Hamid Olimjonning hayotini, she‘rlarini eslatadi. Shu niyatda tabiatga murojaat qiladi, uni hayolan suhbatdoshiga aylantiradi.



O'QISHGA TAVSIYA ETAMIZ!

- ▶ -“Bahor keldi seni so‘roqlab”
- Muallif: Zulfiya
- Nashr yili: 2019
- Tili: O‘zbek (lotin)
- Betlar: 192
- Nashriyot: Toshkent.: Yangi asr avlodi
- ISBN raqami: 978-9943-27-413-6




XX asr o‘zbek she‘riyatining zabardast vakillaridan biri, davlat arbobi Zulfiya Isroilova bugungi kun o‘quvchilari uchun yaxshi tanish. Maktab darsliklarida shoiraning qator she‘rlarini mutolaa qilganmiz. Vatan, muhabbat, vafo, ezgulik tuyg‘ulariga yo‘g‘rilgan she‘rlari barchamizning ko‘nglimizdan munosib joy olgan.

Mazkur kitob Zulfiya tavalludining 100 yilligiga bag‘ishlab nashrga tayyorlangan. Undan shoira ijodidagi eng sara she‘rlar o‘rin olgan. Aziz o‘quvchilarimiz ushbu to‘plamni o‘qib, mutolaa zavqidan bahramand bo‘ladilar, degan umiddamiz.

O'QISHGA TAVSIYA ETAMIZ!

- ▶ -“Tingla, bulbul”
- Muallif: Zulfiya
- Nashr yili: 2019
- Tili: O‘zbek (lotin)
- Betlar: 104
- Nashriyot: Toshkent.: Kamalak-PRESS
- ISBN raqami: 978-9943-5683-1-0



Zulfiya XX asr o‘zbek she‘riyati osmonida chaqnab chiqqan Zuhro yulduzidir. Shoiraning yoqimli lirik sozi sadolari o‘zbek she‘riyati navolari orasida yaqqol ajralib turadi, ko‘ngillarga yorqin ruh bag‘ishlaydi, nur ulashadi. O‘zbek ayolining boy va rang-barang ichki dunyosi, ayol erki, ayol qalbi, sadoqat va vafo, visol va hijron, pok sevgi, yorug‘ muhabbat, sevikli yor nashidalari va iztiroblari, ona baxti va armonlari shoira ijodining hayotbaxsh sarchashmalaridir.

O'QISHGA TAVSIYA ETAMIZ!


- ▶ -“O‘g‘irlamang qalamim bir kun”
- Muallif: Zulfiya
- Nashr yili: 2019
- Tili: O‘zbek (lotin)
- Betlar: 160
- Nashriyot: Toshkent.: Kamalak
- ISBN raqami: 978-9943-5683-1-0



Zulfiya XX asr o‘zbek she‘riyati osmonida chaqnab chiqqan Zuhro yulduzidir. Shoiraning yoqimli lirik sozi sadolari o‘zbek she‘riyati navolari orasida yaqqol ajralib turadi, ko‘ngillarga yorqin ruh bag‘ishlaydi, nur ulashadi. O‘zbek ayolining boy va rang-barang ichki dunyosi, ayol erki, ayol qalbi, sadoqat va vafo, visol va hijron, pok sevgi, yorug‘ muhabbat, sevikli yor nashidalari va iztiroblari, ona baxti va armonlari shoira ijodining hayotbaxsh sarchashmalaridir.

O'QISHGA TAVSIYA ETAMIZ!

- ▶ -“Saylanma”
- Muallif: Zulfiya
- Nashr yili: 2016
- Tili: O‘zbek (lotin)
- Betlar: 224
- Nashriyot: Toshkent.: Sharq
- ISBN raqami: 978-9943-26-608-7



*Hamon e'tiqodim – haqiqat, haqdir,
So'zlayman, yuzimni tutib Ka'baga,
Yemira olmaydi o'tkinchi taqdir,
Osuda o'tadi ruhim abadga.*

*E'zozlar, ardog'lar uchun tashakkur,
Asli Siz oftobim, men ziyosiman.
Tonglaringiz kulsin dorilomon, nur,
Baxtim shul – o'zbekning Zulfiyasiman.*

O'QISHGA TAVSIYA ETAMIZ!


- ▶ -“O‘g‘lim sira bo‘lmaydi urush”
- Muallif: Zulfiya
- Nashr yili: 2019
- Tili: O‘zbek (lotin)
- Betlar: 80
- Nashriyot: Toshkent.: Yangi asr avlodi
- ISBN raqami: 978-9943-20-374-7



Vatandan judo bo‘lish inson tortishi mumkin bo‘lgan alamli azoblardan biridir. Muallif o‘tgan asrning o‘ttizinchi yillarida, mustabid sho‘rolar davrida O‘zbekistondan chet ellarga ketishga majbur bo‘lgan vatandoshlarimizdan biri. Kitobda muallifning yurtdagi qatag‘onlarga guvoh, bo‘lgani yoritilgan.

O'QISHGA TAVSIYA ETAMIZ!

- ▶ -“So‘z chamani”
- Muallif: Zulfiya
- Nashr yili: 2020
- Tili: O‘zbek (lotin)
- Betlar: 128
- Nashriyot: Toshkent.: Akademnashr
- ISBN raqami: 978-9943-6361-5-6



Muhtaram kitobxon, "So'z chamani" turkumida Sizning e'tiboringizga yana bir muazzam to'plam - O'zbekiston xalq shoiri, taniqli jamoat arbobi, Javoharla'l Neru nomidagi xalqaro mukofot, xalqaro "Nilufar" mukofoti sohibasi, o'zbek she'riyatini jahon minbarlarida baralla jaranglatgan atoqli ijodkor, xalqimizning ardoqli farzandi Zulfiya ijodidan saralangan she'riy asarlar taqdim etilmoqda. Barchamiz uchun aziz va qadrdon she'riyat bilan qayta diydorlashuv sizni mamnun etadi deb ishonamiz.

O'QISHGA TAVSIYA ETAMIZ!

- ▶ -“Tong bilan shom aro”
- Muallif: Zulfiya
- Nashr yili: 2012
- Tili: Krill(lotin)
- Betlar: 224
- Nashriyot: Toshkent.: Sharq
- ISBN raqami: 978-9943-00-923-3




Yaxshi she'r mudrab yotgan ruhiyatni uyg'otadi. Tongning nafasidek ko'ngilga xush yoqadi. Ko'klam havosidek bahru dilingizni ochib yuboradi. Har yili erta bahorda o'zbekning sevimli shoirasi Zulfiyaxonim yodga olar ekanmiz, beixtiyor qalbgga yaqin misralari jaranglaydi:

*Hamon e'tiqodim – haqiqat, haqdir,
So'zlayman, yuzimni tutib Ka'baga,
Yemira olmaydi o'tkinchi taqdir,
Osuda o'tadi ruhim abadga...*

O'QISHGA TAVSIYA ETAMIZ!

- ▶ -“She’rlar”
- Muallif: Zulfiya
- Nashr yili: 2016
- Tili: Krill(lotin)
- Betlar: 49
- Nashriyot: Toshkent.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi
- ISBN raqami: 978-9943-06-594-9




1935-yili shoira hamid Olimjon hayot rishtalari bilan bog'lanadi.

H.Olimjonning bevaqt vafotidan keyin (1944) chop etilgan “Hijron kunlarida” nomli she’riy to‘plamiga shoira qalbining abadiy firoq iztiroblari bilan to‘la she’rlari kiritilgan. 50-yillarning 2-yarmida Zulfiya Osiyo va Afrika yozuvchilarining tinchlik va xalqaro birdamlik ostida o‘tgan harakatida faol qatnashadi va shu davrda yozilgan “Mushoira ‘ she’ri shoiraga katta shuhrat keltirdi. U mustaqillik yillarida “Xotira siniqlari” nomli dostonini yaratdi. Zulfiya Javoharlar Neru nomidagi va “Nilufar” nomli xalqaro mukofotlarga sazovor bo‘lgan. Shuningdek, “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni bilan taqdirlangan va uning nomida yoshlar uchun Davlat mukofoti ta’sis qilingan.

O'QISHGA TAVSIYA ETAMIZ!

- ▶ -“Ko‘zlaringda bormi yulduzing”
- Muallif: Zulfiya
- Nashr yili: 2022
- Tili: O‘zbek (lotin)
- Betlar: 144
- Nashriyot: Toshkent.: Zabarjad media
- ISBN raqami: 978-9943-6869-9-1



Zulfiya - bahor shoirasi. Zulfiya - qalblar shoirasi. Zulfiya sadoqatni madh etuvchi dilbar shoira. Ijodkorni go'zal asarlar yozishga undovchi turli holatlar bor. Zulfiya esa yuragidagi ayriliq azobini misralarga tizar ekan, beixtiyor yozganlarida o'zining vafo va yorga sadoqat tuyg'ularini ham ifoda etadi. Ayolni ulug'lagan, ayolni sharaflagan jufti xotirasini abadiylashtirishni o'z burchi deb bilar ekan, Zulfiya bu mas'uliyatni bajarishning uddasidan chiqdi:


Hayotda men uchun qolarding tirik,

Qalaming mujdasin kutardim mushtoq.

Zulfiya ijodiga mushtoqlar, Zulfiya ijodini sog'inganlar uchun tayyorlagan tuhfamiz umid qilamizki, barchangizga manzur bo'ladi.

O'QISHGA TAVSIYA ETAMIZ!

- ▶ -“Yana bahor keldi sizni so‘roqlab”
- Muallif: Nurali Qobul
- Nashr yili: 2015
- Tili: O‘zbek (lotin)
- Betlar: 128
- Nashriyot: Toshkent.: Tafakkur
- ISBN raqami: 978-9943-24-158-9



Xalqimizning sharaflı farzandi va suyuqli shoirasi, mehr-u muhabbat hamda sadoqat kuychisi, oqibat malikasi Zulfiyaxonim (Zulfiya Isroilova) tavalludiga yuz yildan oshdi. Yillar o'tsa-da, shoira o'z hayoti va ijodi bilan abadiyat osmonida yorqin porlab turadi.

IZBOSKAN TUMANI AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZI AXBOROT KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLASHTIRISH XIZMATI

E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!

BIZNI IJTIMOIIY TARMOQLARIMIZDA KUZATIB BORING!!!

- ▶ **Facebook:** https://www.facebook.com/profile.php?id=61574646792252&locale=ru_RU
- ▶ **Instagram:** https://www.instagram.com/izboskan_akm/
- ▶ **Telegram:** <https://t.me/izboskantumanakm>
- ▶ **YouTube:** <https://www.youtube.com/@izboskantumaniakm>
- ▶ **Twitter:** <https://x.com/home?lang=ru>

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va raqamlashtirish xizmati rahbari:
Feruzaxon Dehqonova